

Xalilxodjayeva Shaxnoza G'afurovna.

Matematika fani o'qituvchisi

Umarova Guljahon Erdanovna.

Toshkent imkoniyati cheklangan shaxslar uchun ixtisoslashtirilgan 1-son kasb-hunar maktabi Biznes asoslari fani o'qituvchisi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada tadbirkorlik hamda biznes asoslari va ularning ahamiyati haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar. *Tadbirkorlik, ob'yekt, iste'molchi, biznes, qimmatbaho buyum, faoliyat, iqtisod.*

Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi rivojlangan davlatlar qatoridan o'rin egallashi oson kechgani yo'q. Shuning uchun biznes asoslarini o'qitish jarayonida o'quvchilar bugungi kunning ishab chiqarish biznesi, bugungi kunda ma'rifatli bozor iqtisodiyotining muhim talabi-kam mehnat sarflagan holda, ko'proq va sifatli mahsulot ishlab chiqarish, kishilarning talab va ehtiyojlarini to'la qondirish va shu asosda foyda olishdan iborat. Bu borada ishlab chiqarish jarayoni asosiy harakatlantiruvchi kuch-tadbirkorlardir. Tadbirkorlik ob'yekti bo'lib, ishlab chiqarish omillarini samarador kombinatsiyasini oqilona ishlab chiqish va natijada maksimal darajada daromad olish hisoblanadi. Biznesga bozor orqali talab-ehtiyojni qondiruvchi faoliyat ham kiradi. Iste'molchilar (xaridorlar)ning biznesda ishtirok etishdan manfaati tovar va xizmatlarni sotib olishdir. Tadbirkorlik biznesidan farqliroq iste'molchi biznesida hamma fuqarolar qatnashadi, ularning talab-ehtiyojlarini bozor orqali qondirish zarurati faol tadbirkorlikni talab qiladi. Tadbirkorlik biznesning bir qismi, u tovarlar ishlab chiqarish va xizmat turlarini ko'rsatish yo'li bilan daromad topishdir. Biznesga tadbirkorlikdan tashqari boshqa yo'l bilan, masalan pul yoki qimmatbaho buyumlarni bankka qo'yib, daromad topish yoki ijaraga berib pul topish kabilar kiradi, lekin bu faoliyat sohalarida yaratuvchilik yo'q, ya'ni hech bir narsani yaratmay, u boylikdan boylik undirishdan iborat xolos.

Tadbirkorlik va Biznes asoslari nimani o'rgatadi? U o'z Biznesingizni tashkil qilib, uni rivojlantirish, muvaffaqiyatli tadbirkor bo'lishingizga imkoniyat yaratadi. Tadbirkor va Biznes deganda faqatgina pul topish yo'lidagi harakat, boylik oshirishga intilish bilan cheklanib qolmagan holda yangi ixtiro va yangi ko'rinishlarni kashf qilishingiz, zamonaviy tadbirkordek fikrlashingiz, innovatsion g'oyalarni hayotga tadbiriq etishingiz va kuchli tadbirkorlar orasida bo'lishingiz tushuniladi va biz esa buni ta'minlaymiz.

Tadbirkorlik! Bu hodisa va tushuncha bir qarashda juda oddiy, hammaga ravshandek tuyuladi. Haqiqatdan esa, u juda murakkab, ko'pqirrali va, buning ustiga, fundamental ijtimoiy-iqtisodiy hodisadir. Tadbirkorlik ideologi hisoblangan Y. Shumpeter: tadbirkorlikni barcha turdagi ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarga xos hodisa bolib, ularning nafaqat tarkibiy qismi, balki iqtisodiyotni harakatlantiruvchi kuch, deb ta'kidlab o'tgan. Tadbirkorlik O'zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida hamda jahon moliyaviy-iqtisodiy

inqirozi salbiy ta'sirini yumshatish va oqibatlarini bartaraf etishda shunday kuch ekanligini namoyon etmoqda va yetakchi sohaga aylanmoqda.

O'zbekistonda tadbirkorlik jamiyatining ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlari mujassamlashgan, yaqqol namoyon bo'ladigan hamda tez rivojlanib borayotgan va harakatchan sohasiga aylanib bormoqda. Mamlakatda bozor munosabatlarining shakllanishi va iqtisodiy taraqqiyotida uning o'rni va roli tobora sezilarli tus olib bormoqda.

O'zbekistonning iqtisodiy jihatdan qudratli davlatga aylanishi bozor iqtisodiyoti tizimini barpo etish vazifasi bilan bir davrga to'g'ri kelmoqda, ya'ni bu ikkisi bir-biriga uzviy bog'liq ulug'vor ishni bir tarixiy davrda uddalashdek og'ir muammoni hal qilishga to'g'ri kelmoqda. Bozor iqtisodiyotiga o'tish, bir tomondan eski iqtisodiy tafakkurdan voz kechish, yangi iqtisodiy tizimga o'tish bo'lsa, ikkinchi tomondan mamlakatni og'ir iqtisodiy ahvoldan olib chiqish, iqtisodiyotga yangi sifat berish, barqaror o'sish sur'atlari va biznes asoslarini yaratish bilan amal qilinadi. Bozor iqtisodiyotining asl ma'nosi iqtisodiyotni tashqaridan tartibga solish tajribasidan voz kechib, o'zini - o'zi tartibga solish, yo'naltirishdir. Uning markazida bozorga barqaror o'sish sur'atlari baxsh etib turadigan yangi bozor mexanizmi tadbirkor inson turadi, inson omili yoki ish kuni yotadi. Boshqacha aytganda, shunday sifatdagi biznes asoslari tayyorlanishi kerakki, u o'zida hozirgi zamon ilmiy-texnika inqilobiy yutuqlarini bartaraf qiladigan xususiyatlarini gavdalantirgan bo'lishi kerak, ayni vaqtda bu yangi ish kuchi omili o'zida yuksak milliylik, O'z vatanini imkoniyatlaridan unumli foydalana bilish xislatlarini ham egallashi darkor. Demak, yangi iqtisodiy tizimga o'tish, mustaqil davlat qurishni har birimizdan, birinchi navbatda, O'zbekiston taqdiri va kelajagi bo'lgan yoshlardan, ularda zamonaviy iqtisodiy tafakkur, biznes asoslari va iqtisodiy tafakkur zaminida o'zi va o'z xalqi, Vatani taqdiri uchun mas'uliyat hissini sezish yotadi. Bunga erishish vositasi biznes asoslarini egallashdir, iqtisodiy qonunlar va tushunchalar mazmunini chuqur idrok etish, bilib olishdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Avtoreferat. «O'zbekiston Respublikasida kichik va o'rta biznesning ustuvor yo'nalishlarini ekonometrik bashoratlash». Toshkent 2002yil.
2. Iqtisodni erkinlashtirish, resurslardan tejamkorlik bilan foydalanish bosh yo'limiz. Xalq so'zi 13 fevral, 2002 yil.
3. Основные показатели развития малого и частного предпринимательства за январь-март 2004 года: Статистический сборник / Государственный комитет Республики Узбекистан по статистике. - Т., 2004.-59с. 1 экз.
4. Основные показатели развития малого, среднего бизнеса и частного предпринимательства за 2003 год: Статистический бюллетень.- Т., 2004.- 68 с. 1 экз.
5. Xodiev B.Yu., Samatov G'.A., Yusupov M.S., Eshov M.P. «Kichik tadbirkorlik faoliyati asoslari» o'quv-amaliy qo'llanma. – Toshkent: EH TEMPUS dasturi «Matador-2000» loyihasi 2004.-144 bet.